



UO'K: 811.512.133'366

Azamat URALOV,
Sirdaryo viloyati pedagogik mahorat markazi dotsenti, DSc
E-mail: azamaturalov06@gmail.com
Nasiba MAMATKULOVA,
Guliston davlat universiteti tadqiqotchisi
E-mail: mamatkulova84@internet.ru

F.f.d F.Sharipov taqrizi asosida

SO'ZNING FUZIYON O'ZGARISHLARI VA AGGLYUTINATSION HODISALAR

Annotatsiya

Maqolada so'zning fuziya orqali o'zgarishlari, morfem birliklardagi agglyutinatsiya hodisasi haqida so'z boradi. Morfonologik birliklar haqida yetuk olimlar tomonidan berilgan ilmiy-nazariy fikrlarga munosabat bildirilgan. Diaxron va sinxron aspektida ayrim morfemalarning morfonologik jihatlari tadqiq etilgan, shuningdek, bugungi kundagi ba'zi misollar bilan isbotlab berilgan.

Kalit so'zlar: Til taraqqiyoti, fuziya hodisasi, o'zgaruvchan o'zak, morfologik jarayonlar, fleksiya termini, semantik birlik, morfem birlik.

FUSIONAL CHANGES OF WORDS AND AGGLUTINATIVE PHENOMENA

Annotation

The article discusses the changes of words through fusion, the phenomenon of agglutination in morpheme units. The scientific and theoretical views of eminent scientists on morphophonemic units are discussed. The morphophonemic aspects of some morphemes are studied in diachronic and synchronous aspects, and some examples from today are also provided.

Key words: Language development, fusion phenomenon, variable stem, morphological processes, inflectional term, semantic unit, morpheme unit.

ФУЗИОННЫЕ ИЗМЕНЕНИЯ СЛОВ И АГГЛЮТИНИРУЮЩИЕ ЯВЛЕНИЯ

Аннотация

В статье рассматриваются изменения слов путем слияния, явление агглютинации в морфемных единицах. Обсуждаются научные и теоретические взгляды выдающихся ученых на морфофонемные единицы. Изучаются морфофонемные аспекты некоторых морфем в диахроническом и синхронном аспектах, а также приводятся некоторые примеры из сегодняшнего дня.

Ключевые слова: Развитие языка, явление слияния, изменчивая основа, морфологические процессы, словоизменительный термин, семантическая единица, морфемная единица.

Kirish. Fuziya ("fusia" lotincha "erib ketish, singish") – yangi shakllar hosil qiluvchi usul. Affikslar hosil bo'lishining fuziya usuli bir necha affiksal morfemalarning o'zaro zich birikib ketishini, so'z hosil bo'lishining fuziya usuli esa asos va affiks (asos va asos)larning o'zari zich birikib ketishini anglatadi, natijada qo'shma affiks yoki so'z tarkibidagi qismlarning "singishib" ketishi, qismlarga to'g'ridan to'g'ri ajratishning imkoni yo'qligi kuzatiladi hamda oradagi chegara signallarining yo'qolishi kabi holatlar sezilib turadi. Qo'zi+choq, o't+loq (qumloq, toshloq so'zlarida -loq affiksining yaxlitlashib ketgan varianti mavjud) kabi so'zlar tarkibida keluvchi cha+q, la+q affikslari fuziya tufayli yaxlitlashib olgan. Natijada fuziyaga uchragan affikslar tarkibidagi "a" morfonologik o'zgarishga uchrab "o" holatiga o'tgan hamda yangi shakl tarkibida o'rinishgan.

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi. Bizga ma'lumki, E.Sepir 1921-yilda "Fuziya" terminini fanga olib kirdi. E.Sepir fikriga tayangan holatda A.Kononovning qayd etishicha "affiksatsiya ikki ko'rinishda shakllanadi: 1) eruvchan (fuziyalanuvchi), 2) yondosh keluvchi; bu ko'rinishni agglyutinatativ tur deb ham nomlash mumkin" [4] bo'ladi. Garcha E.Sepir fuziyani qo'shimcha (affiks, sufiks, prefiks)lar, yangi asoslar hosil qiluvchi alohida usul ko'rinishida ajratib bermagan bo'lsa-da, unda fuziya ikki elementning o'zaro singishib, biri yoki har ikkisi o'zgarishga uchrashi va genetik

ma'nolardagi o'zgarishlar yuz berishini aytadi. Bu ko'rinishdagi g'oyalar "Tilshunoslik terminlari lug'ati"da (Maruzo J. – M.1960. 331-beti) qayd etilgan bo'lsa, "O'zgaruvchan o'zak bilan nostandart qo'shimchani morfemalar o'rtasidagi chegaraning yo'qolishiga olib keluvchi zich birikuvi – fuziya" [1] ekanligi O.S.Axmanovning lug'atida qayd etiladi. T.A.Bertagayevning fikriga ko'ra, "Fuziya quyidagi ko'rinishlarda bo'ladi: affiks+affiks fuziyasi; affiks+yuklama yoki yordamchi so'z fuziyasi; yordamchi so'z+yordamchi so'z fuziyasi; mustaqil so'z+yordamchi so'z yoki yuklama fuziyasi; negiz+affiks fuziyasi; mustaqil so'z+mustaqil so'z fuziyasi"[3]. Fuziya qaysi usul va ko'rinishda namoyon bo'lmasin so'zlar tarkibi o'zgaradi. Bu o'zgarishda morfonologik o'zgarishlar sodir bo'ladi va tadqiqotimiz obyektiga aylanaveradi. Fuziya jarayonining bir vaqtda sodir bo'lmasligini hisobga olsak, -gina, -choq, /i/msira, -/i/nqira, -loq singari kichraytirish affikslarining ikki va uch bir vazifa bajaradigan yoki vazifaviy o'xshash (pleonastik takrorlardan) morfemalardan tuzilganligini; -moqchi, -dagi singari affikslar esa vazifaviy noo'xshash – bir vazifa bajarmaydigan qismlardan tarkib topgan.

Morfologik tizimda morfonologik jarayonlar, xususan, fuziya (ya'ni morfemalarning o'zaro tutashuvi, fonetik va semantik jihatdan bir-biriga singishishi) hodisasi, til strukturasi va undagi morfologik birliklar o'rtasidagi murakkab

munosabatlarni ochib berishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Fuziya hodisasi turlaridan biri sifatida morfemalarning morfonologik shakllar orqali o'zaro kuchli darajada integratsiyalashuvi natijasida ularning ayrim qismlari o'zining vazifaviy faolligini yo'qotadi. Ayrim hollarda esa morfologik birliklar fonetik jihatdan birlashadi, bu esa butunlay yoki qisman yangi semantik birlik (affiks)ning vujudga kelishiga olib keladi.

Natija va muhokama. O'zbek tilida fuziya hodisasi keng tarqalgan bo'lib, ko'pincha so'z va qo'shimchalarning tutashish nuqtalarida yuzaga keladi. Bunday holatda so'zning funksional yuklamasi kamayadi yoki butunlay pasayadi, natijada morfemalarning o'zaro fuziyasi (singishuvi) yuz beradi. Ayniqsa, fuziyaga uchragan morfemalarning semantik mustaqilligi zaiflashib, ular faqat shakl vositasi sifatida "faoliyat ko'rsatadi". Bu esa fuziyalashgan shakllarning yasallishida asosiy shartlardan biri sifatida qaraladi. Shuningdek, morfemalarning tutashgan joylarida fonetik o'zgarishlar – unli yoki undoshlarning qisqarishi, tushib qolishi yoki assimilyatsiyalanishi ham kuzatiladi. Bu fonetik o'zgarishlar fuziya jarayonining ta'siri sifatida namoyon bo'ladi.

"Fuziyaning ilmiy termin sifatidagi mohiyati morfemalar qo'shiluvdagi chegara signalining yo'qolishi va singishuv jarayoni bilan bog'liqdir. Fleksiya terminining lingvistik mohiyati esa asosan grammatik ma'noning ifodalanishi, relyatsion qo'shimchalarning birikish jarayoni va mana shu jarayonda yuz beradigan ayrim fonetik o'zgarishlar bilan belgilanadi"[8]. Bunday tarkibiy o'zgarish natijasida hosil bo'lgan yangi morfologik birliklar tarkibidagi morfemalar ayrim holatlarda o'zlarining dastlabki, genetik ma'nolaridan ajraladi, semantik jihatdan esa ular yangi real birlikni anglatadi. Dastlabki ma'nolarni aniqlash esa faqat etimologik tahlil orqali amalga oshirilishi mumkin. Bu esa fuziya jarayonining diaxronik va sinxronik nuqtayi nazardan ham o'rganilishini talab etadi.

Masalan, kiyim-kechak qo'shma so'zi o'z tarkibiy qismlari nuqtayi nazardan takroriy so'zga o'xshaydi, biroq bu so'zni takroriy so'z sifatida biror tadqiqotda kuzatmadik. Kiyim-kechak so'zining tarkibiy tuzilishida (kechak qismini nazarda tutmoqdamiz) fuziya hodisasining diaxron ko'rinishi kuzatilishi mumkin. "Kechak" so'zining zamonaviy o'zbek tilida mustaqil ishlatilishi deyarli uchramaydi. U asosan "kiyim-kechak" birikmasi tarkibida uchraydi, bu yerda semantik yukni emas, balki umumlashtiruvchi, kuchaytiruvchi vazifani bajaradi. Shu sababli bu so'zning tarixiy asoslarini aniqlashda, fonetik tuzilishi o'xshash bo'lgan boshqa kiyimlarga oid birliklar bilan qiyosiy tahlil qilib ko'ramiz. Masalan, "to'nchak" shakli ayrim shevalarda kichik to'n, bolalar uchun mo'ljallangan kiyimni anglatadi. Ushbu birlikda -chak affiksi yaqqol ko'zga tashlanadi, bu esa "kechak" so'zining kichraytirish yoki "noziklashtirish" ma'nosida ishlatilgan bo'lishi mumkinligini ko'rsatadi. Ya'ni, "kechak" dastlab to'n, ko'ylak yoki boshqa ustki kiyimlarning kichik ko'rinishi sifatida shakllangan bo'lishi ehtimoli bor. Bu hol o'z navbatida morfologik vositalarning so'z yasallishdagi ishtirokini tasdiqlaydi. Garchi -chak shakli yasovchi birlik bo'lmasa-da, ayrim so'zlar, ayniqsa shevalarda bu holat bilan bog'liq yangicha yasalmalarni kuzatish mumkin: tugunchak, belanchak kabi. Belanchakda har qanday belanishi mumkin bo'lgan tushunchani, tugunchakda esa harqanday tugulishi mumkin bo'lgan matoni nazarda tutamiz.

Shunga o'xshash yana bir birlik "tunchak" (tungi kiyim ma'nosida) so'zidir. U ayrim hududlarda yupqa ko'ylak ma'nosida qo'llanadi. Bu so'zda ham -chak affiksi mavjud bo'lib, "kechak" bilan ritmik va morfemik jihatdan tutashib ketadi. Bu yerda ham "kechak" o'z asosida qandaydir ustki

kiyim, ehtimol ko'ylak, yengil kiyim ma'nosini bildirgan bo'lishi mumkin degan taxminni kuchaytiradi. Tildan chiqib ketgan bu turdagi birliklarning "kiyim-kechak" tarkibida yashab qolishi, aynan fuziya orqali amalga oshganligini ko'rsatadi. Vaholangki, "Ikki narsa bir-biridan faqat o'zaro zid qo'yilgandagina farqlanadi. Zidlanish zidlovchi a'zolari farqlash uchun xizmat qiladigan belgilarnigina emas, balki har ikki zidlanayaotgan a'zolar uchun umumiy bo'lgan belgini ham taqozo etadi"[11]. Bundan tashqari, "yalpak", "do'ppak" kabi so'zlar ham fonetik tuzilma jihatidan "kechak" so'ziga o'xshab ketadi. Garchi ular bugungi kunda bosh kiyim yoki shaklni ifodalovchi birliklar bo'lsa-da, ularning qadimgi variantlari ustki kiyim, tanani yopuvchi narsalarni anglatgan bo'lishi ehtimoldan xoli emas. Ayniqsa, "do'ppak" shakli qalin bosh kiyimni bildiradi va u sovuqdan himoyalovchi vazifaga ega bo'lgani bois, tarixiy semantik o'xshashlikni ko'rsatadi.

Ko'rinadiki, "kechak" so'zining o'zi zamonaviy tilda faol bo'lmasa-da, uning fonetik modeli turli kiyim nomlarida davom etmoqda. Bu esa ushbu so'zning o'zbek tilidagi qadimiy qatlamga mansubligini va ma'no jihatidan kiyim bilan uzviy bog'liqligini ko'rsatadi. "Kechak" ehtimol, ilk davrlarda konkret bir kiyim turini bildirgan, lekin til taraqqiyoti davomida semantik jihatdan ma'nosi sutlashib, o'z yagonaligini yo'qotgan va faqat qo'shma so'z tarkibida saqlanib qolgan. Shunday qilib, fonetik o'xshashlik va semantik yaqinlik asosida aytish mumkinki, "kechak" so'zining "kiyim" bilan bog'liqligi nafaqat morfologik darajada, balki tarixiy leksik taraqqiyot nuqtayi nazaridan ham asosli. Bu tahlil "kiyim-kechak" birligidagi fuziya jarayonining tabiiy va diaxron til hodisasi ekanligini yana bir bor tasdiqlaydi.

Garchi ushbu birlik yuzaki qaraganda takrorlovchi murakkab so'zga o'xshasa-da, aslida uning shakllanishi chuqur diaxron asosga ega. Kiyim va kechak so'zlari tarixan o'zaro sinonimik yaqinlikka ega bo'lgan bo'lib, har ikkisi tanani yopuvchi, inson kiyadigan narsani bildirgan. Bugungi zamonaviy o'zbek tilida esa "kechak" so'zi alohida ishlatilmaydi, uning mustaqil semantik faolligi yo'qolgan. Shu sababli, "kiyim-kechak" birikmasida asosiy semantik vazifasi "kiyim" qismiga yuklatilgan, "kechak" esa kuchaytiruvchi yoki umumlashtiruvchi vosita sifatida vazifa jihatdan mavjud.

Bu holat morfonologik fuziyaning tarixiy ko'rinishiga to'g'ri keladi: tarkibiy qismlardan biri (bu holda "kechak") o'zining mustaqil ma'nosini yo'qotib, boshqa qism bilan fonetik va semantik jihatdan singishib ketgan. Talaffuz jihatdan bu birlik yaxlit tarzda talaffuz qilinadi, bu esa morfemik chegaraning zaiflashganligini ko'rsatadi. Shunday qilib, "kiyim-kechak" so'zi bugungi kunda bir butun morfologik birlik sifatida idrok etiladi va undagi "kechak" qismi real ma'noga ega emas, balki semantik vazifaga xizmat qiladi.

Bu turdagi birliklar til taraqqiyotida morfologik tizimning soddalashuvi, ko'plik, umumlashtirish yoki ifoda kuchini oshirish yo'nalishida shakllanganligini ko'rsatadi. "Kiyim-kechak" birikmasi ham aynan shu yo'nalishdagi til hodisasi sifatida baholanadi va o'zbek tilida morfonologik fuziyaning diaxron ko'rinishi sifatida e'tirof etilishi mumkin.

Fuziya hodisasini diaxronik nuqtayi nazardan, ya'ni tarixiy semasiologiya prinsiplari asosida tahlil qilish o'zbek tilining turli sath va bo'limlariga oid birliklarning rivojlanish qonuniyatlarini aniqlashga yordam beradi. Ayniqsa, til taraqqiyotining bosqichlari bo'yicha genetik, etimologik va muayyan sinxron davrlar doirasidagi ma'no munosabatlari dialektikasini o'rganish semasiologiya faniga yangi ilmiy natijalar olib kiradi. Bu jarayon tilning kommunikativ, pragmatik, estetik va emotsional-ekspressiv funksiyalari bilan bevosita bog'liq bo'lgan murakkab masalalar doirasiga kiradi [9].

Ayrim birliklar shakl yasovchi affikslarning umumiy tasnifi ("forma yasovchi affikslar: 1. Modal forma yasovchilar; 2. So'z o'zgartiruvchilar" [10]) nuqtayi nazaridan so'zlar tarkibiga birikuvi natijasida fuziya va agglyutinatsiya jarayonlari bir vaqtning o'zida sodir bo'ladi. Asos va morfemalar orasidagi chegaralar til tizimida har doim ham aniq va ochiq ko'rinmaydi. Vaqt o'tishi bilan yuzaga keladigan fuzion jarayonlar natijasida bu chegaralar sezilarli darajada o'zgaradi: tovushlarning o'zgarishi, morfemalarning birikib ketishi, fonetik jihatdan soddalanishi yoki aksincha, qayta bo'linishi kabi hodisalar yuz beradi. Bu esa asos bilan affikslar o'rtasidagi strukturaviy aniqlikning yo'qolishiga olib keladi.

Masalan, oga + ini → og'ayni, bor + a + men → boraman, qizil-qizil → qip-qizil, borib + yotub + men → boryapman kabi shakllarda fonetik jihatdan qisqarish, qo'shimchalarning fuizialanishi yoki o'zaro singishuvi kuzatiladi. Ushbu jarayonlar til tizimida agglyutinativlik belgilarini yuzaga keltirgan bo'lsa-da, ularning kelib chiqishida fuziya – ya'ni shakl va ma'no jihatdan morfemalarning o'zaro uyg'unlashuvi muhim rol o'ynagan.

Bu kabi shakllanishlar orqali tilshunoslikda morfemalararo chegaraning tobora noaniq holga kelishi va morfologik birliklarning yangi ko'rinishlarda namoyon bo'lishi fuzion jarayonlarning tabiatini ochib beradi. Shu jihatdan, fuzion va agglyutinativ unsurlar o'zaro bog'liq holda, tilning tarixiy va strukturaviy taraqqiyoti jarayonida uyg'unlashgan holda namoyon bo'ladi.

"Ayrim hisoblariga ko'ra, bu halqalarning soni bir o'zak doirasida to o'n to'rttagacha yetishi mumkin. Ana shu halqalarda turli xil tarixiy jarayonlar bilan bog'lanuvchi omillar ta'sirida tarixiy-genetik hamda funksional o'zgarishlar uzluksiz sodir bo'lib turadi. Asos va qo'shimchalarning o'zaro semantik-fonetik chatishishi, boshqacha aytganda, morfem materialning qayta birikishi va taqsimlanishi ham to'xtovsiz davom etadi. Natijada til yangi morfologik birliklar – o'zaklar va qo'shimchalar bilan boyib boradi" [12]. Ana shu xususiyatlariga ko'ra, "agglyutinativ tillar qo'shimchalar hosil qilish bo'yicha hayronqolarli qobiliyatga ega" [6]. Yuqoridagi fikrlarga keng qamrovda yondashish kerakligini ta'kidlab, I.A.Boduen de Kurtene V.V.Radlovning asarlariga yozgan

taqrizida: "Til jonli, real birliklar sifatida morfologik birliklariga bir xillikda qotib qolmagan, doimo o'zgarib turadigan, shu bilan birga, jonli, real birliklar sifatida qarash kerak" [5] degan edi.

Morfem birliklarning asos tarkibiga zich yoki sintagmatik birikishi natijasida yoki ikki shaklning birikuvi natijasida agglyutinatsiya ro'y berishi ma'lum. "Achchiq" so'zi tarkibi "achchi+q" [7] ekanligi va bu so'zning asosi "achi" ekanligi fanda mavjud. Fe'l+sifat yasovchi (achi+q) birikuvidan hosil bo'lgan bu so'z tarkibida forfonologik o'zgarish sodir bo'lgan. Natijada asos tarkibida bitta "ch"ning ortishi kuzatiladi. Bu o'rinda asosga qo'shib kelayotgan "ch" ma'no kuchaytirishga, belgining oriq ekanligini ko'rsatishga xizmat qilmoqda. Bu holatni "sassiq", "issiq" so'zlarida ham kuzatish mumkin (bu xususida keyinroq batafsil to'xtalamiz).

Xulosa. Taraqqiyot shuni ko'rsatadiki, ayrim shakllarda ro'y bergan o'zgarish shaklga ta'sir o'tkazadi va turli holatda fuziyaga uchrashi kuzatiladi. Bu esa tashqi tomondan asl (dastlabki – genetik) shakldan boshqasiga o'tadi va boshqa shakl qiyofasini oladi. Bunda shakl o'zgarishi bilan mazmun ham o'z mavqeyini yo'qotishi mumkin. Shuningdek, ayrim holatlarda so'zshakl tarkibidagi ma'no ifodalamay qolgan shakl o'z mavqeyini "talab qiladi". Yuqoridagi misolda "ch" hech bir asossiz so'z tarkibiga birikmoqda, birikib bo'lgach o'z mavqeyini yuzaga chiqarmoqda. Aslida so'z tarkibida "ch"ning ortishi nutqning qulaylashuvi talabi bilan birikkan edi.

Tarixiy-semasiologik o'zgarishlar tildagi ayrim shakllarning turlicha o'zgarishlariga va taqsimlanishiga olib keladi, natijada hosil bo'lgan yangi shakl eskisiga nisbatan bir oz o'zgaradi. Buning o'ziga xos sabablari bo'lishi mumkin. "Biror-bir vazifaga ega bo'lmagan element har qanday tilda yo'qolishga mahkumdir" [5]. Ayrim o'rinlarda biz hech qanday vazifaga ega bo'lmagan birliklarni ham ma'lum semaga xizmat qilishini kuzatamiz: bur – bura shaklidagi so'zlar tarkibida -a amorfi shu holatda mevqeyini yo'qotgan bo'lishiga qaramay ma'no-semasi nuqtayi nazardan harakatning artib borishini ta'minlamoqda. Boshqacha qilib aytganda shakl nuqtayi nazardan mavjud va hech qanday qiymatga ega bo'lmagan birlik, sema maydonida ortiqlik vazifasini bajarmoqda: bur – bir martalik harakat, bura – ko'p martalik harakat.

ADABIYOTLAR

1. Ахманова О.С. Словар лингвистических терминов. –М., 1966.
2. Реформатский А.А. Агглютинация и фузия / Морфологическая типология и проблема классификации языков. –М. 1967.
3. Бертагаев Т.А. Морфологическая структура слова в монгольских языках. –М. 1969.
4. Кононов А.Н. О фузии в тюркских языках / Структура и история тюркских языков. – М.: Наука, 1971.
5. Серебренников В.А. О некоторых фонетических особенностях конечных формативов. // Современные проблемы литературоведения и языкознания. –М.: Наука, 1974.
6. Серебренников Б.А. Вероятностные обоснования в компаративистике. –М. 1974.
7. Ғуломов А, Тихонов А.Н., Қўнғуров Р. Ўзбек тили морфем луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1977.
8. Раҳимов А.У. Фузия лисоний типини квантитатив ва синергетик ёндашув асосида тадқиқ этиш. Филол. фан. номз. ...дисс. автореф. – Тошкент, 2009.
9. Mirtojiev M. Semasiologiya. –Toshkent, 2010.
10. Усмонов С. Ўзбек тилида сўзнинг морфологик тузилиши. –Тошкент, 2010 (1964).
11. Pardayev A. O'zbek tili yordamchi so'zlarida farqlash va zidlanish // SamDU Ilmiy axborotnoma. 2021. 2-son.
12. Uralov A. O'zbek tili morfologik shakllari tizimida nomutanosiblik. Fil. fan. dokt. (DSc) ... diss. – Samarqand, 2024.